

Jizzax davlat pedagogika universiteti
Boshlang'ich ta'lim nazariyasi va
amaliyoti kafedrası, PhD Siddiqova
Shoxida Isoqovna taqrizi ostida

Usmonova Yulduz Abdusaid qizi
Jizzax davlat pedagogika universiteti
Ta'lim va tarbiya nazariyasi va
metodikasi
(boshlang'ich ta'lim) mutaxassisligi
bosqich magistranti
Email: yu611357@gmail.com
ORCID ID: [0009-0007-8803-895X](https://orcid.org/0009-0007-8803-895X)

PIRLS TADQIQOTI UCHUN TANLANADIGAN O'QUV MATERIALLARINING XUSUSIYATLARI

Annotatsiya: Ushbu maqolada PIRLS tadqiqoti uchun tanlanadigan o'quv materiallarining xususiyatlari o'rganiladi. Tadqiqot jarayonida o'quvchilarning o'qish savodxonligini baholash uchun qo'llaniladigan badiiy va informatsion matnlarning tarkibi, ularning didaktik ahamiyati va lingvistik murakkablik darajasi tahlil qilinadi. Shuningdek, maqolada materiallarni tanlash mezonlari, ularning yosh xususiyatlariga mosligi va PIRLS baholash tizimi talablariga muvofiqligi haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: PIRLS, o'qish savodxonligi, badiiy matn, axborot matni, baholash tizimi, o'quv materiallari, xalqaro tadqiqot.

Аннотация: В данной статье изучаются особенности учебных материалов, отбираемых для исследования PIRLS. В процессе исследования анализируется состав художественных и информационных текстов, используемых для оценки грамотности чтения учащихся, их дидактическая значимость и уровень лингвистической сложности. Кроме того, в статье рассматриваются критерии отбора материалов, их соответствие возрастным особенностям учащихся и требованиям системы оценки PIRLS.

Ключевые слова: PIRLS, грамотность чтения, художественный текст, информационный текст, система оценки, учебные материалы, международное исследование.

Annotation. This article examines the characteristics of educational materials selected for the PIRLS assessment. The study analyzes the composition of literary and informational texts used to evaluate students' reading literacy, their didactic significance, and linguistic complexity. Additionally, the article discusses the criteria for selecting materials, their suitability for different age groups, and their alignment with the PIRLS assessment system requirements.

Key words: PIRLS, reading literacy, literary text, informational text, linguistic complexity, didactic significance, assessment system, age characteristics, educational materials, international study.

Kirish

PIRLS (Progress in International Reading Literacy Study) tadqiqoti boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligini baholashga yo'naltirilgan bo'lib, unda ishlatiladigan o'quv materiallari muhim rol o'ynaydi. PIRLS 2021 tadqiqotida 57 ta davlat orasida O'zbekiston 49-o'rinni egalladi. PIRL 2021 tadqiqotida badiiy matnni tushunish bo'yicha

oʻrtacha ball 438 ni tashkil qilgan boʻlsa, axborot matni uchun bu koʻrsatkich 434 ga teng boʻlgan.[5]Materiallar oʻquvchilarning matnni tushunish, tahlil qilish va baholash qobiliyatlarini oʻlchashga moʻljallangan. Ushbu jarayonda oʻqituvchilarning oʻquv materiallari bilan ishlash strategiyalari muhim ahamiyat kasb etadi. Mamlakatimizdagi 4-sinf oʻquvchilari orasida faqat 42.9 foizi oʻqiganlarini tushuna oladi. [6] Maqolada PIRLS tadqiqoti doirasida oʻqituvchilarning samarali strategiyalaridan foydalanish yoʻllari hamda tadqiqot uchun tanlanadigan oʻquv materiallarining xususiyatlari va ularning oʻquvchilarning oʻqish savodxonligiga taʼsiri tahlil qilinadi.

Materiallar va uslublar

Ushbu tadqiqot quyidagi usullar asosida olib borildi:

Adabiyotlar tahlili – PIRLS tadqiqotining rasmiy hujjatlari va ilmiy maqolalar oʻrganildi.

Matn turlarini oʻrganish – Badiiy va axborot matnlarining xususiyatlari tahlil qilindi.

Oʻqituvchilarning tajribalarini tahlil qilish – Ularning dars jarayonida qoʻllagan strategiyalari tahlil qilindi.

Prezident farmonida belgilanganidek, Xalq taʼlimi tizimida oʻquvchilarning bilim darajasini baholashda taʼlim sifatini baholash boʻyicha xalqaro dasturlar va izlanishlar (PISA, TIMSS, PIRLS va boshqalar) da Oʻzbekiston respublikasining doimiy ishtiroki taʼminlanadi. [1] Bundan anglashiladiki, kelgusi tadqiqotlarda munosib ishtirok etishni taʼminlash uchun tayyorgarlikni puxta qilish lozim.


Oʻqib tushunish – bu matnni qayta ishlash, uning maʼnosini tushunish va oʻqiyotgan shaxs oldindan bilgan narsalar bilan bogʻlab anglay olish qobiliyatidir. [2]

PIRLS tadqiqotida foydalaniladigan matn turlari quyidagicha:

Badiiy matnlar – bolalar adabiyotidan namunalar, hikoyalar va ertaklar.

Axborot matnlari – ensiklopedik maʼlumotlar, maqolalar va ilmiy-ommabop matnlar.

Ular boʻyicha taqdim etiladigan savollar matn mazmunini tushunish, asosiy gʻoyalarni ajratib olish hamda oʻquvchilarning tanqidiy fikrlash qobiliyatini baholashga qaratilgan boʻladi. Quyidagi diagrammada PIRLS tadqiqotidagi savollarga berilgan javoblarni baholash mezoni taqsimoti aks ettirilgan:[4]



PIRLS tadqiqoti materiallarini tanlashda o'quvchilarning yosh xususiyatlariga mosligiga, lug'at boyligi va murakkablik darajasiga, matnning qiziqarli va motivatsion bo'lishiga e'tibor qaratiladi. Badiiy matnlar – tasavvur va ijodiy fikrlashni rivojlantirishga xizmat qilsa, axborot matnlari – mantiqiy fikrlash va faktlarga asoslangan tushunishni oshirishga mo'ljallangan bo'ladi. Har ikki turdagi matnlarni qo'llashning ahamiyatlidir.

O'quvchining tushunish jarayoni va o'qishdan ko'zlagan maqsadlariga qaratilgan PIRLS baholash dasturining foizli ko'rsatkichlarda berilishi quyidagilarni inobatga olib tuzilgan har bir matnga oid savollar uchun asos bo'lib xizmat qiladi:

Izlash va topish: 3 balldan 4 ballgacha (bunda 3 tadan 4 tagacha savol/topshiriqlar berilishi mumkin, chunki savollar asosan muqobil javob variantli yoki bir ballik javob yozishni talab qiladigan ochiq savollardan iborat bo'ladi);

To'g'ridan-to'g'ri xulosalar chiqarish: 5 balldan 6 ballgacha (4 yoki 5 tadan savol bo'lishi mumkin, chunki savollar asosan muqobil javob variantli yoki bir yoki ikki ballik javob yozishni talab qiladigan ochiq savollardan iborat bo'ladi);

Talqin qilish va umumlashtirish: 5 balldan 6 ballgacha (2 yoki 3 tadan savol bo'lishi mumkin, chunki savollar asosan 2 yoki 3 ballik javob yozishni talab etadigan uzunroq ochiq savollardan iborat bo'ladi);

Baholash va tanqidiy baho berish: 3 balldan 4 ballgacha (bunda odatda bir necha har xil turdagi savollar beriladi, shu sababli savollar 4 ta muqobil javob variantidan tortib bitta javob yozishni talab qiladigan uch ballik ochiq savollargacha bo'lishi mumkin).

O'quvchilarning o'qib tushunish ko'nikmalarini to'g'ri baholash uchun har bir matn tarkibidagi savollarga ajratilgan umumiy ball kamida 15 ball bo'lishi kerak. Tajriba sinovi va qayta ko'rib chiqish jarayonida ayrim savollar olib tashlanishini inobatga olib, har bir matn yuzasidan

umumiy 18-20 ballga teng savollar tuziladi. Har bir matn uchun oʻrtacha 12 tadan 14 tagacha savollar boʻlishi lozim.

- Muqobil javob variantli savollarga bir ball beriladi.
- Talab etiladigan oʻqib tushunish koʻnikmasiga doir savollarning murakkablik darajasidan kelib chiqib, javob yozish talab qilinadigan ochiq savollarga bir, ikki yoki uch ball beriladi.

Har bir matn yuzasidan berilgan 12 tadan 14 tagacha boʻlgan savollarni tuzishda quyidagilar inobatga olinadi:

Boshlangʻich savollar osonroq savollar boʻlishi kerak. Oʻquvchilar murakkabroq savollarga oʻtishlaridan avval ularga bir yoki ikkita osonroq savollar beriladi. Mazkur savollar nisbatan murakkab boʻlmagan savollar hisoblanib, oʻquvchilarni matn bilan ishlashga imkon beradi. Savollar matnning asosiy gʻoyasiga yoki matnning boshlanish qismida berilgan asosiy maʼlumotga yoʻnaltirilgan boʻlishi kerak. Savollar matnda berilgan maʼlumotlar ketma-ketligiga mos ravishda berilishi kerak. Savollarning javobi matnda berilgan maʼlumotlar ketma-ketligida boʻlishi kerak. Bu ayniqsa maʼlumotlarni topish va toʻgʻri xulosa chiqarish koʻnikmasini baholovchi savollarni tuzishda qoʻl keladi. Ammo, buni boshqa savollarga ham qoʻllash mumkin. Oʻquvchilar matndan savollarga toʻgʻri javobni topa olishlari uchun koʻp vaqtlarini sarflab yubormasligi lozim. Murakkabroq jarayonlarni baholovchi barcha savollar ham topshiriqning soʻnggi qismida berilmasligi kerak. Oʻquvchilarning talqin qilish va umumlashtirish yoki baholash va tanqidiy baho berish koʻnikmalarini baholovchi savollar butun topshiriq boʻylab teng taqsimlangan boʻlishi kerak. Bu esa barcha topshiriqlarni bajara olishga vaqti boʻlmagan oʻquvchilarga shu turdagi koʻnikmalarini namoyon etishlariga imkon beradi. Har bir matn uchun bittadan uch ballik savol tuzing. Mazkur savol oʻquvchilarning talqin qilish va umumlashtirish va jarayonni baholash koʻnikmasini tekshiradi. Har bir matn asosida bittadan uch ballik savol tuzilsa, bu oʻquvchilarning tusuhinsh darajalarini namoyon etishlariga yordam beradi. Bittadan ortiq uch ballik savol tuzmaslik soʻraladi, chunki oʻquvchilar mazkur savollarni bajarishga koʻp vaqt sarflab yuborishlari mumkin. Uch ballik savol topshiriqning boshida beriladigan savollar boʻlmasligi lozim, chunki oʻquvchilar sinovga kirishib olishlariga imkon berilishi kerak. Shuningdek, bunday savollarni topshiriqning soʻnggi qismiga qoʻyish ham oʻrinli emas, sababi oʻquvchilar bu turdagi savollarni chetlab oʻtib, sinovni yakunlashiga majbur boʻlishi mumkin. Imkoni boricha savollarning xolisligiga eʼtibor bering. Savolda berilgan maʼlumot boshqa savollarning javobini topishga yoʻnaltirilmaganligiga eʼtibor bering. Shuningdek, muayyan savolga toʻgʻri javob berish avvalgi savollarga aslo bogʻliq boʻlmasligi kerak. Bundan tashqari, javob yozishni talab etadigan ochiq savollarga turlicha javob berilishi lozimligi hamda oʻquvchilar savollarning mavzusi yoki asosiy gʻoyasini koʻchirib yozishlarini talab qilmasligi lozim.[3]

Natijalar va muhokamalar

PIRLS materiallari oʻquvchilarning oʻqish savodxonligini turli yoʻnalishlarda baholaydi. Matnlarning xilma-xilligi bolalarning har xil mavzularda fikrlash qobiliyatini oshirishga xizmat qiladi. Savollar tizimi nafaqat faktik maʼlumotlarni aniqlash, balki tanqidiy fikrlashni rivojlantirish uchun ham muhim. PIRLS tadqiqoti uchun tanlanadigan oʻquv materiallari oʻquvchilarning oʻqish va tushunish koʻnikmalarini rivojlantirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Matn tanlash mezonlariga eʼtibor berish oʻquvchilarning taʼlim jarayonidagi muvaffaqiyatiga bevosita taʼsir qiladi. Turli matn turlarining uygʻunligi orqali oʻquvchilarning keng qamrovli bilim olishiga yordam berish mumkin. Oʻqituvchilar tomonidan qoʻllaniladigan samarali strategiyalar oʻquvchilarning oʻqish qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Interfaol

yondashuvlardan foydalanish o'quvchilarning matn mazmunini yaxshiroq tushunishiga yordam beradi. O'quvchilar o'rtasida matnni tahlil qilish ko'nikmalarini shakllantirish kelajakdagi akademik muvaffaqiyatlarga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Matnlar bilan ishlashni nafaqat o'qish savodxonligi, balki boshqa dars mashg'ulotlariga ham integratsiya qilish orqali o'quvchilarning salohiyatini oshirib borish mumkin. Buning uchun, avvalo, o'quvchilarning tushunish darajasiga mos materiallarni tanlash kerak. So'ngra matnlarni mavzularga mos tarzda taqsimlab chiqish lozim. Matnni tahlil qilish uchun interfaol metodlarni qo'llash kerak. Matnlar bilan ishlash natijasida o'quvchilarda quyidagi ko'nikmalarni tarkib toptirish lozim:

1. Muhim ma'lumotlarni ajratib olish.
2. Asosiy g'oyani aniqlash.
3. Matn mazmunini shaxsiy tajriba bilan bog'lash.

Bunda o'qituvchi savol-javob usulidan foydalanishi, rolli o'yinlar orqali o'qish jarayonini jonlantirish, o'quvchilarni mustaqil fikrlashga undashi mumkin.

Xulosa

PIRLS tadqiqotida foydalaniladigan materiallar o'quvchilarning matnni tushunish, tahlil qilish va baholash qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Ushbu materiallar orqali o'quvchilarning o'qish savodxonligini yanada mustahkamlash va ularni turli janrdagi matnlar bilan ishlashga o'rgatish mumkin. PIRLS tadqiqoti uchun tanlanadigan o'quv materiallari yosh bolalarning o'qish ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi. Badiiy va informatsion matnlarning uyg'un qo'llanilishi, matnning mazmuni va qiziqarli bo'lishi o'quvchilarning ta'lim jarayonida yuqori natijalarga erishishiga xizmat qiladi. Bu borada quyidagilarni taklif qilaman:

1. O'zbekiston ta'lim tizimida PIRLS mezonlariga mos matnlar yaratish
2. Mahalliy o'quv dasturlarini PIRLS talablariga moslashtirish.
3. O'zbek xalq ertaklari va hikoyalari asosida PIRLS standartlariga mos matnlar ishlab chiqish.
4. O'zbek tilida yuqori sifatli informatsion matnlar yaratish va ularni dars jarayoniga kiritish. O'qituvchilarning PIRLS tadqiqotidagi materiallar bilan ishlash strategiyalari o'quvchilarning matnni tushunish qobiliyatini rivojlantirish uchun muhim omil hisoblanadi. Turli metodik yondashuvlardan foydalanish orqali o'quv jarayonini yanada samarali tashkil qilish va bolalarning savodxonlik darajasini oshirish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712-sonli farmoni.
2. "What is Reading Comprehension?" (en-US). Reading Worksheets, Spelling, Grammar, Comprehension, Lesson Plans (2008-yil 29-may)
3. Ina V.S. Mullis and Michael O. Martin. PIRLS 2016 Item Writing Guidelines.
4. Ina V.S. Mullis and Michael O. Martin, Editorss PIRLS 2021 Assessment Frameworks. Publishers: TIMSS & PIRLS International Study Center, Lynch School of Education, Boston College and International Association for the Evaluation of Educational Achievement (IEA) Library of Congress Catalog Card Number: 2019904373 ISBN: 978-1-889938-52-3
5. <https://www.gazeta.uz/ru/2019/06/26/education/>
6. <https://www.gazeta.uz/uz/2023/05/17/pirls/>